



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI





SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2023-yilning yanvar-may oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11 701,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,5 % ni tashkil etdi.

yanvar-may
mlrd. so'm



yanvar-may
FHI, %






■ mlrd. so'm FHI, %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (9 619,0 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (6 272,0 ming so'm) nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar-may oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 11 701,7 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 106,5 % ni, tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-may oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (47,2 %), Jomboy tumani (9,9 %), Utgut (7,3 %), hamda Samarqand tumani (6,8 %), tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Bulung'ur tumanida (115,8 %), Oqdaryo tumanida (114,5 %) hamda Qo'shrabot tumanida (109,4 %) kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar-may oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, ishlab chiqarish 7,8 % ga hamda Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilishda 29,1 % ga oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 38,3 % ga, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 3,9 % ga pasayish kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 114,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2023-yilning yanvar-may oylarida 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali 16,9 % (12,9 %), o'rta-quyi texnologiyali 18,8 % (17,9 %) va quyi texnologiyalisi 60,4 % (65,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,2 % (2022-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,9 % (2022-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 23,7 % (2022-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 40,1 % (2022-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	73,2	28,0	- 45,2
Paxta tolasi, ming t.	23,5	29,6	6,1
Tozalangan paxta yog'i tonna.	5 292,0	6 371,0	1 079,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	149,0	201,2	52,2
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna	273,2	305,5	32,3
Uzum vinosi - ming litr	19,1	6,2	-12,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	36,1	12,6	- 23,5

2023-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 305,5 tonna (2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 11,8 % ga ko'paygan), 28,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (61,7 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-may oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-may oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 890 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 49,4 % ga kamaygan.



2023-yil

890 dona

2023-yil

50,6 %

2022-yil

1 596 dona

2022-yil

99,4 %

2021-yil

1605 dona

2021-yil

111,3 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-may oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-may oylarida 340 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga kamaygan.



2023-yil

340 dona

2023-yil

90,4 %

2022-yil

376 dona

2022-yil

116,4 %

2021-yil


323 dona

2021-yil

72,1 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 9,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 165,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,9 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 128,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 279,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-may oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 85,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,2 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 91,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 374,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-may oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 25,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 108,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 30,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 107,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 566,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 87,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 114,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 18,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,1 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 112,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 232,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-may oylarida Kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 106,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, Kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 %, fizik hajm indeksi 122,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 429,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 55,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 106,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 100,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 140,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %, fizik hajm indeksi 98,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 103,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 206,7 %.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 58,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 134,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 87,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 195,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 290,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 217,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 86,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 285,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 14,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,4 %, fizik hajm indeksi 66,8 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 1 102,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 136,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 61,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	102 278,7	41 865,7	- 60 413,0
Issqlik energiyasi, ming, gkal	4 045 522,0	3 034 581,4	- 1 010 940,6


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % *)



Elektroenergiya



Issqlik energiyasi



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 82,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	15 303,7	19 078,7	3 775,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	40,9	42,0	1,1
Plastmassa chiqindilari, tonna	221,0	1 229,7	1 008,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % *



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm






* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 32,9 % shuningdek, Urgut 12,2 %, Tayloq 11,2 % ni hamda Samarqand tumanlarida 10,6 % ni tashkil etdi




■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 062,2 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida 2 513,0 ming so'mni, Jomboy tumanida 2 290,0 ming so'mni, Tayloq tumanida 2 278,4 ming so'mni va Samarqand tumanida 1 738,5 ming so'mni tashkil etdi.



Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 384,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 119,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 37,5 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



2023-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 2 220,6 milliard so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 22,1 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'tacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Bulung'ur tumani (176,5 %), Oqdaryo tumani (153,4 %), Jomboy tumani (150,9 %) hamda Ishtixon tuman (139,8 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 50,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 49,4 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 32,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 67,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 122,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 117,6 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,3 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 15,4 %, Samarqand 9,5 %, hamda Ishtixon tumani 6,0 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi





■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 24,8 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,1 % ni, Toyloq tumani esa 13,5 % ni tashkil etdi.

yanvar-may
mlrd. so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-may
o'sish sur'ati



■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 276 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 204 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,2 %) Samarqand shahriga, 834 tasi (13,3 %) Urgut tumaniga, 645 tasi (10,3 %) Samarqand tumaniga, 528 tasi (8,4 %) Pastdarg'om tumaniga va 386 tasi (6,2 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

651 ta

2023-yil yanvar-may

868 ta

2022-yil yanvar-may

878 ta

2021-yil yanvar-may



Jami faoliyat yuritayotgan

6 276 ta


2023-yil 1-iyun holatiga

8 421 ta

2022-yil 1-iyun holatiga

7 571 ta


2021-yil 1-iyun holatiga





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 100,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,6 % ni tashkil etdi.

yanvar-may
mlrd. soʻm



yanvar-may
ulushi %



■ mlrd. soʻm oʻsish surʻati, %